O‘ZBEK ADABIYOTIDA ROMAN JANRI ASOSCHISI ABDULLA QODIRIY HAYOTI VA IJODI

Abdukarimov Narimon Abduruaf o‘g‘li
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Mexanika fakulteti
Texnalogik mashinalar va jihozlar kafedrasi 2 bosqich talabasi
jasurbeka785@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o‘zbek romanchiligining asoschisi, yigirmanchi yillardagi muhim ijtimoiy- madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi haqida so‘z yuritiladi.
KALIT SO‘ZLAR: Abdulla Qodiriy, shoir, nosir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, bog‘bon, muxbir, millat, ma'naviyat, tarix.

Abdulla Qodiriy (Julqunboy)- yozuvchi, shoir, tarjimon, dramaturg, XX asr o‘zbek adabiyotining ulkan namoyondalaridan biri, o‘zbek romanchiligi asoschisi.

1894 yil 10 aprelda Toshkent shahrining Eskijo‘va mahallasida tavallud topgan. Adibning otasi Qodirbobo (1820-1924y) xon, beklar qo‘lida sarbozlik qilgan, rus bosqini paytida Toshkent mudofaasida qatnashgan. Adib o‘z tarjimai holida shunday deydi: “Har holda bemavridroq bo‘lsa kerak, kambag‘al, bog‘bonlik bilan kun kechirguchi bir oilada...tug‘ilg‘onman. Yoshim to‘qqiz-o‘nlarga borg‘ondan so‘ng meni maktabga yubordilar. Maktabda ikki-uch yil chamasi eski usulda o‘qib, keyin vaqtlarda oilamizning nihoyatda qashshoq kun kechirgani vajhidan o‘n ikki yoshimda meni bir boyga xizmatchilikka berdilar. Xo‘jayinim o‘zi savdogar kishi bo‘lub, o‘rischa yozuv-chizuv bilaturg‘on odamga muhtoj edi. Shu ta’ma bo‘lsa kerak, meni o‘ris maktabga yubordi... 1912 yilda manfaktur bila savdo qiluvchi bir kishiga yiliga 50 so‘m barobariga prikazchik bo‘lub kirdim...”

Abdulla Qodiriy - yorqin, barchaga keng ma’lum shoir va yozuvchi, dramaturg va publitsist, o‘zbek adabiyotida roman janri asoschisi. Qodiriyning asarlari o‘zbek xalqi hayotiga bag‘ishlangan. Abdulla Qodiriyning nashr etilmagan XX asrning yigirmanchi yillari yozilgan sahna asari asosida rejissyor Mark Vayl o‘zining Toshkentdagi Ilhom teatrida “Oppoq qora laylak” sahna asarini qo‘ygan.Yoshlik va o‘smirlik yillardagi muhit - savdogarlar, boylar va kambag‘al dehqonlar, iqtidorli hunarmandlar, doim muhtojlikda kun kechiruvchi kosiblar va yersiz dehqonlardan iborat bo‘lgan. Ushbu mehnatkash odamlar dunyosi, shuningdek, shahar ziyolilari bo‘lajak yozuvchi shakllanishida muhim o‘rin tutdi.

Abdulla yoshiligidan uzoq umr kechirgan (Qodir aka 102 yil umr ko‘rgan) va ko‘pni ko‘rgan otasining hikoyalarini tinglab o‘tirar edi, otasidan u adabiy faoliyatida as qotgan sezgir kuzatuvchanlikni meros qilib olgan. Uning otasi bog‘dorchilikni juda yaxshi ko‘rgan, shu sabab, Qodiriyning o‘zini bog‘bonning o‘g‘liman, degan fikrlarini uchratish mumkin. Abdulla Qodiriy avvaliga musulmon maktabida (1904-1906), keyin — rus-tuzem maktabida (1908-1012) o‘qib, muvaffaqiyatli yakunlaydi. 1912 yil kelib, Abdulla Qodiriyning nisbatan birinchi adabiy tarjribalari boshlanadi. O‘zining ilk nashr etilgan asarlarida - “Xotinboz” (1915) va “Baxtsiz kuyov” (1915) hikoyalarida eski o‘zbek turmushining chizgilari hajviyona ifodalangan. 1915-1917 yillar Qodiriy Abdul Qosim madrasasida arab va fors tillarini astoydil o‘rganadi. Yozuvchining inqilobdan avvalgi asarlarida jadidchilik ta’siri sezaladi.

Sovet davrida A. Qodiriy V. Ya. Bryusov (1924-1925) nomidagi Moskva adabiy kurslarida o’qiydi, so‘ngra, 1925-1926 yillar Toshkentda, “Mushtum” o‘zbek hajviy jurnalida ishlaydi. U yerda kitobxonning katta muvaffaqiyatiga sazovor bo‘lgan ijodkorning hajviy

hikoyalari va feletonlari chop etiladi. Qodiriyning roman va qissalari (“O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”), shuningdek, jamoaviy ijodi (“Obid Ketmon” qissasi) XIX asr toshkentlik va qo‘qonlik o‘zbeklar hayotiga bag‘ishlangan. “O‘tgan kunlar” romani katta shuhrat qozongan. Barcha ziyolilar ushbu kitobni o‘qishga intilgan. Va hatto, savodsiz kishilar uni tinglash uchun guruh bo‘lib to‘planishgan. Ko‘plab o‘zbek oilalarida romanning Otabek va Kumush qahramonlarining ismlari paydo bo‘la boshlagan.

Abdulla Qodiriy ijodiy faoliyatining boshlanishi 1910-yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. "Sadoi Turkiston" gazetasining 1914-yil 1- aprel sonida Abdulla Qodiriy imzosi bilan „Yangi masjid va maktab“ sarlavhali xabar bosiladi. Bu bo‘lajak adibining matbuotdagi dastlabki chiqishi edi. Oradan ko‘p o‘tmay, uning „To‘y“, „Ahvolimiz“, „Millatimga“, „Fikr aylagil“ kabi she'rlari, "Baxtsiz kuyov" dramasi, "Juvonboz" hikoyasi chop etiladi (1914—1915). Abdulla Qodiriy ijodining dastlabki namunalari bo‘lgan bu asarlar millatparvarlik, ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan bo‘lib, jadidchilik g‘oyalari bilan sug‘orilgandir. Muallif unda xalqning zabun holatidan kuyib so‘zlaydi, millatni uyg‘onishga da’vat etadi, fikrlashga chorlaydi. Abdulla Qodiriyning "ULOQDA" hikoyasi (1916) avvalgi asarlari bilan tenglashtirib bo‘lmaydigan darajada yuqori bo‘lib, XX tongidagi o‘zbek realistik adabiyotining cho‘qqisi, realistik hikoyaning eng yaxshi namunasi hisoblanadi.

“Mehrobdan chayon” romani - ikki asr bo‘sag‘asidagi turkiston jamiyatining ijtimoiy, axloqiy hayoti haqidagi roy-ro‘st asar. A. Qodiriy xalqning feodal tuzumdagi hayot tarzining o‘ziga xos mohiyatini ochib berishga intilgan, hukmdorlarning ishlarini va fe’l-atvorini, ma’naviy ustozlarni ko‘rsatadi. Ushbu ziddiyatlar tantanavor emas, ular qahramonlarning og‘ir turmushidan kelib chiqadi – Abdurahmonning ayolni o‘ziga bo‘ysundirish istagi va Shohidbekning fitnalariga qaramay, Anvar va Ra’no bir-birini chinakam sevadi va oila qurishga harakat qiladi.

Go‘zallik, halollik, olijanoblikka intiluvchi Ra’noning xalq fe’l-atvoriga xos, ajoyib qiz ko‘rinishini namoyon bo‘ladi - samimiy, toza niyatli, ma’nan sodda va ochiq. U Anvarni toza, yorqin sevgi ila beg‘araz va sadoqat bilan yaxshi ko‘radi. Anvar - mardlik timsoli, adolatli, cheskiz vijdon egasi.

Abdulla Qodiriy zamondoshlari haqidagi “Obid ketmon” romani, shov-shuvga sabab bo‘lgan “Shirvonlik Mallaboy aka” ocherki muallifi. Shuningdek, o‘zbek adabiyoti tarixiga sezilarli hissa qo‘shgan boshqa ko‘plab ocherk va hikoyalar muallifi. “Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotiga momaqaldiroq kabi kirib kelib, yorqin chaqmoq kabi barchaning e’tiborini o‘ziga qaratdi”, deb yozadi Izzat Sultonov.

Ushbu so‘zlarning haqqoniyligini qozoq yozuvchisi Muxtor Auezov ta’kidlab, alohida qayt etadi: “Yoshligimizda Abdulla Qodiriy romanlarini berilib o‘qir edik. Biz uning inson fe’l-atvorini yasash, bizgacha inson ehtiroslarining tug‘yonini yetkazib berish mahoratidan hayratlanardik”. O‘zbek adabiyotida roman janrining asoschisi Abdulla Qodiriyning ko‘plab asarlari ko‘plab Sharq hamda MDH mamlakatlarida e’tirof qozondi.

Unda muallif Toshkent hukmdori Azizbek mulkidagi xalq an’analari, diniy urf-odatlar, yozilmagan qonunlarni, inson huquqlari va qadr-qimmatlarining buzilishi haqida bayon etadi. Mug‘ombir fitnachi, “gunohkor”larga nisbatan qattiqqo‘l “qozi”, uddabiron munofiq Azizbek uch yil Toshkentni shunday boshqaradiki, savdo-sotiq pasayib, usta-hunarmandlar xonavayron bo‘lishadi, guruch va paxta hosildorligi sezilarli tushib ketadi.

Yozuvchi katta mahorat ila feodal voqe’likning chinakam ziddiyatlarini ochib bergan. Moddiy va madaniy boyliklarning yaratuvchisi sifatida xalq bir tarafdan davlatchilik qo‘riqchisi va himoyachisi, boshqa tarafdan, xonning jamiyat negiziga qarshi chiqib, zolimlarga qarshi

qo‘zg‘alon ko‘taradi. Shuningdek, xalqni katta soliqlar bilan ko‘mib tashlagan hukmdorlarga qarshi chiqadi. Romanning markaziy ixtilofi - ota va o‘g‘il o‘rtasidagi ijtimoiy-axloqiy ziddiyatlar. Yosh Otabek “oila qurish” borasida ota-onasining topgan qiziga uylanib an’analariga qarshi qat’iyatli nuqtai nazarli yosh yigit, uning otasi Yusuf xoja eski tuzumdagi dunyo qarashli, qadimiy an’analar tarafdori. Biroq, muallif ushbu oilaviy mojarolarni alohida voqea sifatida emas, umummillatli holat ko‘rinishida bayon etadi.

Otabek va Kumush timsoli - o‘zbek adabiyotidagi yangi hodisadir. Otabek boy oilaning farzandi, o‘qimishli inson bo‘lib, dunyoni o‘ziga xos tarzda tushunadi, o‘tkir adolat hissiga ega. Kumush unga manzur kelgan. U yaxshi tarbiyalangan, o‘qimishli, tug‘ma aql sohibasi, kelishuvchan. U Otabekni chin dildan sevadi. Ammo bu sevgi unga baxtsizlik keltiradi, zero, u eski an’analarga bo‘ysunib, yaqinlari uning tuyg‘ulariga quloq tutmaydi. Uning ma’naviy sifatlari, go‘zalligi va boy ichki dunyosining shakllanishiga haqiqiy o‘zbek ayoliga xos olijanoblik orzularini o‘zida mujassam etgan onasi Oftob oyim sabab bo‘lgan. U aqlli, xotirjam, bosiq, sezgir ona, haqiqatparvar inson, chaqqon beka. Shunga qaramay, Oftob oyim eski udumlar tarafdori - u erining istaklariga, irodasi va fikriga bo‘ysunadi. Shubhasiz, Abdulla Qodiriyning o‘z asarlari ham bir qancha dunyo tillariga tarjima qilingan. Uning “O‘tkan kunlar” romani 1928 yildayoq ozarbayjon tiliga, “Mehrobdan chayon” asari 1935 yilda tojik tiliga tarjima qilinadi. Abdulla Qodiriyning asarlari ko‘plab Sharq va Yevropa mamlakatlarida e’tirof etiladi. Kitoblari hamon rus, qozoq, uyg‘ur, nemis, tatar, arab, italyan, ingliz tillariga tarjima qilib kelinmoqda.

Abdulla Qodiriy 1937 yilning 31 dekabrida “xalq dushmani” sifatida hibsga olinadi. 1938 yilning 4 oktyabrida yozuvchi 9 oylik xo‘rliklardan so‘ng Cho‘lpon, Fitrat kabi maslakdoshlari bilan birgalikda otib tashlanadi. Toshkentdagi Xo‘ja Alambardor (Kamolon) qabristoniga dafn etiladi. Adib qamoqqa olingandan so‘ng, uning asarlari “zararli” deb topildi. O‘tda yoqildi, kutubxonalardan yo‘qotildi, o‘qish taqiqlandi. Kimning qo‘lida “O‘tkan kunlar” romanini ko‘rib qolishsa, darhol qamashdi. 1957 yilda Abdulla Qodiriy rasman oqlandi. Ammo uning otib tashlanganligi haqidagi ma’lumot (o‘limidan so‘ng oqlanganligi haqidagi ma’lumot kabi) uzoq yillar mobaynida sir saqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent:O‘zbekiston, 2017.
2. Oybek, Asarlar [19 jildli], 16-jild (Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li), T., 1979;
3. Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida, T., 1988; Boqiy N., Qatlnoma, T., 1992;
4. Normatov U., „O‘tgan kunlar“ hayrati, T., 1996.
5. Karimov B. 20 asr o‘zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi (Qodiriyshunoslik misolida). FFD dissertatsiyasi, T., 2002
6. Qo‘shjonov M. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san’ati. T.: Fan, 1966.
7. Mirzaev I. Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi. T.: Fan, 1977.
8. Qozoqov T, Ruzinov.B., & Vohidov, A. (2020). Buyuklarga beshik bo‘lgan Axsikent yohud Farg‘ona allomalari. *Toshkent: Navro‘z*.
9. Ro‘zinov, B. A., Nuriddinov, B. X., & Umarov, X. (2021). Farg‘ona vodiysi amaliy san’atining ta’lim tarbiyadagi o‘rni. *Academic research in educational sciences*, *2*(3), 117-123.

10. Ruzinov, B. A. (2022). Akhsikent Earthquake. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, *9*, 209-212.

11. Qozoqov,T., Ruzinov, B., & Vohidov,A. (2018). Ibrat nigohidagi Axsikent. *Toshkent: Navroz*.

12. qizi Mamadjonova, S. T. (2023). ZAMONAVIY O ‘ZBEK MINIATYURASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(1 SPECIAL), 348-352.

13. Shokirjon o’g’li, S. M. (2022). O ‘ZBEK VA XORIJIY MANZARACHI RASSOMLARNING MAVZULI KOMPOZITSIYA YARATISHDA RANG KOLORITLARIDAN FOYDALANISH. Journal of new century innovations, 17(1), 126